Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsion yondashuv asosida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari	676
<i>Yakubova Zilola Zikirovna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarda mas'uliyatni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	679
<i>Teshayeva Dilnoza Chori qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat turlari asosida estetik tarbiyalash masalalari.	684
<i>Yuldasheva Dilshoda To'lqinovna</i>	
Профессиональная рефлексия как фактор развития научного интеллекта будущего педагога в системе педагогического образования	688
<i>Анварова Хуснора, Isoxоnova Aziza</i>	
Толерантность в мультикультурном обществе	692
<i>Бекбосынова З. К.</i>	
Методика работы над ошибками как средство повышения грамотности	696
<i>Исмаилова Мадинабону</i>	
Методы и подходы к развитию профессиональной лексической компетенции студентов военных направлений	701
<i>Хамидова Нигора Тулкуновна</i>	
Raqamli ta'lim muhiti va uning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga ta'siri	704
<i>Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "botanika" fanini o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish	707
<i>Nasirova Shahlo Qutbiddinovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda media ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xosligi	710
<i>Mahmudjanova Ro'za Mahmudjan qizi</i>	



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari.....	714
<i>Aslanova Malohat Akramovna</i>	
Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida.....	718
<i>Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi</i>	
Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish	721
<i>Ne'matova Diyora Dilshod qizi</i>	
Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati	725
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi.....	728
<i>Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari	733
<i>O'tahanova Manzura G'ofurovna</i>	
Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context.....	736
<i>Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</i>	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni .	749
<i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>	
Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari	752
<i>Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</i>	
Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar	757
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati	762
<i>Xudoyberdiyev Sh. M.</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari.....	766
<i>Esanbekova Fotima G'ayratjonovna</i>	
Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин)	770
<i>Багирова Паринисо Бобировна</i>	
Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar.....	775
<i>Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi</i>	
Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili	780
<i>Toshtemirova Nigora Ibrohimovna</i>	
Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari	784
<i>Tovoshova Ozoda Akmal qizi</i>	
Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish.....	789
<i>Kaxarova Ozoda Abdimominovna</i>	
Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri...	793
<i>M. B. Pulatova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili	796
<i>Maraimova Muxtabar Pulatovna</i>	
Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari.....	801
<i>Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna</i>	



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish	818
<i>Eshquvvatov To'liqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	



Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish	896
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish	903
Sultonova Nurxon Anvarovna	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari	907
Tolipova Shohista Qudrat qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli	911
Turg'unova Gulzoda Botir qizi	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari	916
Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari	919
Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari	923
Xalikova Zaxro Mirshadmanovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi	927
Yoqubova Gulhayo Erkin qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	931
Bilolov Inomjon O'ktamovich	
Karatening kelib chiqish tarixi	934
Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar	937
Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abdulolim qizi	
Родительские установки и развитие личности	941
Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING O'QISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

Laylo Berdiqulova Erkin qizi

Guliston davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy va nazariy asoslari tahlil qilishga qaratilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida, xususan, PIRLS xalqaro baholash dasturlari talablari doirasida o'quvchilarning ongli o'qish va matn tushunish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili, tizimli yondashuv va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Maqolada o'qish malakasini shakllantirishning psixofiziologik va kognitiv bosqichlari ochib berilgan hamda o'qish texnikasidan ongli o'qishga o'tish jarayonidagi asosiy qonuniyatlar belgilangan. Natijalarga ko'ra, boshlang'ich sinflarda o'qish faoliyatini samarali tashkil etish uchun an'anaviy yondashuvlarni zamonaviy interfaol metodlar bilan uyg'unlashtirish zarurligi asoslangan va amaliyotchi pedagoglar uchun tegishli metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, kognitiv rivojlanish, ongli o'qish, o'qish faoliyati, o'qish savodxonligi, pedagogik-psixologik asoslar, PIRLS.

Abstract: This article aims to analyze the scientific and theoretical foundations for developing reading activities among primary school students. In the modern educational system, particularly within the framework of international assessment programs such as PIRLS, fostering conscious reading and reading comprehension skills holds significant scientific and practical importance. The study employs methods of psychological and pedagogical literature analysis, a systematic approach, and comparative analysis. The article reveals the psychophysiological and cognitive stages of forming reading skills and establishes the fundamental principles of transitioning from reading mechanics to conscious reading comprehension. Based on the findings, the necessity of integrating traditional approaches with modern interactive methods for the effective organization of reading activities in primary grades is substantiated, and corresponding methodological recommendations for practicing educators are developed.

Key words: cognitive development, conscious reading, pedagogical and psychological foundations, PIRLS, primary education, reading activity, reading literacy.

Аннотация: Данная статья направлена на анализ научных и теоретических основ развития читательской деятельности у учащихся начальных классов. В современной системе образования, особенно в контексте требований международных программ оценки, таких как PIRLS, формирование навыков осознанного чтения и понимания текста приобретает важное научно-практическое значение. В процессе исследования использовались методы анализа психолого-педагогической литературы, системного подхода и сравнительного анализа. В статье раскрыты психофизиологические и когнитивные этапы формирования навыка чтения, а также определены основные закономерности перехода от техники чтения к осознанному чтению. На основе полученных результатов обоснована необходимость интеграции традиционных подходов с современными интерактивными методами для эффективной организации читательской деятельности в начальных классах, а также разработаны соответствующие методические рекомендации для педагогов-практиков.

Ключевые слова: когнитивное развитие, начальное образование, осознанное чтение, психолого-педагогические основы, читательская грамотность, читательская деятельность, PIRLS.

KIRISH

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim o'quvchi shaxsini shakllantirish, uning dunyoqarashi va intellektual salohiyatining poydevorini yaratishda eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilarning o'qish faoliyatini to'g'ri va tizimli rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. An'anaviy yondashuvlardan voz kechib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir ^[1]. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslarini uzviy bog'langan holda o'qitish metodikasi o'quvchilarda nafaqat

o'qish texnikasini (tezligini), balki o'qilgan matnni anglash va tahlil qilish malakasini ham rivojlantirishga xizmat qiladi ^[4].

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmonida Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, unda o'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dasturlarda (PISA, TIMSS, PIRLS) munosib ishtirok etish vazifasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan ^[3]. Ushbu xalqaro dasturlar orasida PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) bevosita boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholashga qaratilgan bo'lib, u butun dunyoda ta'lim sifatining muhim indikator sifatida e'tirof etiladi ^[2]. Shu sababli, mahalliy olimlar tomonidan o'quvchilarni PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari bugungi kunda faol o'rganilmoqda ^[5].

O'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari haqida so'z borganda, masalaning psixologik va kognitiv jihatlariga chuqur e'tibor qaratish lozim. Taniqli psixolog L. S. Vygotskiy o'zining fundamental tadqiqotlarida tafakkur va nutqning uzviy bog'liqligini isbotlab, o'qish jarayoni shunchaki harflarni tanib, mexanik tovush chiqarish emas, balki g'oyat murakkab aqliy faoliyat ekanligini ta'kidlagan ^[6].

O'z navbatida, psixolog D. B. Elkonin bolalarni o'qishga o'rgatishning psixofiziologik mexanizmlarini tahlil qilib, tovush-harf tahlilining hamda bolaning kognitiv tayyorgarligining o'qish malakasini shakllantirishdagi hal qiluvchi o'rini ilmiy jihatdan asoslab bergan ^[7]. Muammoning qo'yilishi va tadqiqot maqsadi: yuqoridagi ilmiy va me'yoriy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda o'qish faoliyatini ongli o'qish darajasiga ko'tarish masalasi hamon o'zining ilmiy dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslarini chuqur o'rganish hamda xalqaro tajribalar (xususan, PIRLS talablari) asosida dars jarayonini tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. O'qituvchi mavjud sharoit va resurslardan samarali foydalangan holda darsni yuqori darajada tashkil qila olishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish faoliyatini rivojlantirish muammosi asosan uchta yirik yo'nalishda: psixologik-kognitiv, milliy pedagogik metodika hamda xalqaro baholash tizimlari doirasida o'rganilgan. O'tkazilgan tahlillar quyidagi xulosalarni shakllantirishga asos bo'ldi: L. S. Vygotskiy ^[6] va D. B. Elkonin ^[7] o'z tadqiqotlarida o'qish jarayonini shunchaki harflarni tanish emas, balki bolaning tafakkuri va kognitiv rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab aqliy faoliyat sifatida asoslab berganlar.

O'zbek pedagog olimlari, xususan, K. Qosimova ^[4] va T. G'afforova ^[1] tomonidan boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlash metodikasi hamda o'qish malakasini oshirishda an'anaviy usullar o'rniga zamonaviy, interfaol texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi isbotlangan.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qish faoliyatining psixologik va an'anaviy asoslari yetarlicha o'rganilgan. Biroq ta'lim muassasalarida an'anaviy yondashuvlarni zamonaviy kognitiv psixologiya yutuqlari hamda PIRLS xalqaro standartlari bilan bevosita integratsiya qilish bo'yicha yaxlit ilmiy-metodik tizimga ehtiyoj hamon saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda belgilangan maqsadlarga erishish va boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini to'laqonli yoritish uchun sifat tadqiqoti dizayni tanlandi. Tadqiqot jarayonida muammoni har tomonlama o'rganish maqsadida o'zaro bir-birini to'ldiruvchi umumilmiy va pedagogik metodlardan majmuaviy tarzda foydalanildi. Asosiy tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat:

- nazariy-tahliliy metod – muammoga doir psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlarni, shuningdek, ta'lim sohasidagi me'yoriy hujjatlarni chuqur o'rganish hamda tahlil qilish;
- qiyosiy tahlil metodi – O'zbekiston milliy ta'lim tizimidagi an'anaviy o'qish darslari hamda matn ustida ishlash metodikasini PIRLS xalqaro baholash dasturlari talablari bilan taqqoslash;
- tizimli yondashuv – o'qish savodxonligini shunchaki o'qish tezligi yoki texnikasi sifatida emas, balki o'quvchining idrok etish, xotira, mantiqiy tafakkur va nutq kabi aqliy jarayonlarini o'zida mujassam etgan murakkab pedagogik-psixologik tizim sifatida o'rganish;
- umumlashtirish va deduksiya – tahlillar natijasida olingan nazariy ma'lumotlarni tizimlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish hamda amaliyotchi o'qituvchilar uchun aniq metodik tavsiyalar ishlab chiqish.



Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot obyekti bo'lgan o'qish faoliyati mexanizmlarini xolis baholash, amaldagi muammolarni aniqlash va ilmiy jihatdan ishonchli xulosalar chiqarish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda tadqiqot metodologiyasiga muvofiq o'tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda o'qish faoliyatini rivojlantirish shunchaki harflarni tanish va so'zlarni talaffuz qilishdan iborat emas, balki ko'p bosqichli va murakkab kognitiv jarayondir. Ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun dastlab o'qish malakasining shakllanish qonuniyatlarini tahlil qilish talab etiladi. O'qish malakasini shakllantirishning psixologik-pedagogik bosqichlari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda o'qish faoliyati asosan o'qish texnikasi va ongli o'qish kabi ikki yirik komponentdan iborat. Natijalarimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu jarayon uchta asosiy bosqichda kechadi:

- 1) **analitik bosqich (1-sinf)** – bu bosqichda o'quvchining asosiy diqqati matn mazmuniga emas, balki harfni tovushga aylantirish, bo'g'inlarni qo'shish jarayoniga qaratiladi, kognitiv yuklama asosan vizual idrok va xotiraga tushadi;
- 2) **sintetik bosqich (2-3-sinflar)** – o'qish texnikasi qisman avtomatlashib, o'quvchilar so'zlarni butunligicha idrok eta boshlaydilar, shu nuqtada diqqat markazi talaffuzdan so'zning leksik ma'nosini tushunishga ko'chadi;
- 3) **avtomatlashgan ongli o'qish bosqichi (4-sinf)** – o'qish vositadan maqsadga aylanadi, o'quvchi matni qiynalmay o'qiydi va asosiy e'tiborini matnning g'oyasi, mantiqiy ketma-ketligi va yashirin ma'nolarini tahlil qilishga qaratadi.

PIRLS xalqaro dasturi talablari asosidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim tizimida ko'p yillar davomida o'qish tezligiga (bir minutda nechta so'z o'qilishiga) asosiy mezon sifatida qaralgan. Biroq, xalqaro PIRLS dasturi mezonlarini tahlil qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, zamonaviy ta'limda asosiy e'tibor o'quvchining matn ustida ongli ishlash darajasiga qaratilishi zarur.

PIRLS tadqiqoti o'quvchilarning o'qish savodxonligini quyidagi to'rtta asosiy kognitiv jarayon orqali baholaydi:

- aniq berilgan ma'lumotni topish – matnda ochiq-oydin yozilgan faktlar, ismlar yoki voqealarni ajratib olish;
- to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish – ikki yoki undan ortiq ma'lumotlarni o'zaro mantiqan bog'lash;
- g'oya va ma'lumotlarni umumlashtirish – matnning asosiy g'oyasini anglash, qahramonlarning xatti-harakatlariga mustaqil baho berish;
- matn mazmuni va shaklini baholash – muallifning maqsadi, matnning tili va uslubi haqida tanqidiy fikr bildira olish.

Tahlil natijalari tasdiqlaydiki, an'anaviy yondashuvlar orqali PIRLS talab qiladigan yuqori kognitiv malakalarni to'liq shakllantirib bo'lmaydi. Shuning uchun boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari dars jarayonida "o'qituvchi o'qiydi – o'quvchi qaytaradi" usulidan voz kechib, matn ustida ishlashning interfaol strategiyalariga o'tishlari lozim. Bunga matnni qismlarga bo'lib, har bir qism yuzasidan muammoli savollar qo'yish, rolli o'yinlar orqali qahramonlar xarakterini ochish, matn syujeti asosida mantiqiy xaritalar tuzish kabi pedagogik usullar misol bo'la oladi. Bu yondashuvlar o'quvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi va o'qish savodxonligi darajasini xalqaro standartlarga moslashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida olib borilgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirish muammosi yuzasidan olib borilgan nazariy va tahliliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qish jarayoni faqatgina harflarni tovushga aylantirishdan iborat mexanik akt emas, balki o'quvchidan yuqori darajadagi kognitiv faollikni talab etuvchi murakkab aqliy faoliyatdir. Tadqiqotimiz natijasida ma'lum bo'ldiki, ta'limning dastlabki bosqichlaridayoq o'quvchilarda o'qish texnikasi bilan bir qatorda ongli o'qish ko'nikmalarini parallel ravishda rivojlantirish zarur. Ayniqsa, bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimining PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlariga integratsiyalashuvi sharoitida, an'anaviy yondashuvlar o'z o'rnini zamonaviy, interfaol va o'quvchining mantiqiy tafakkurini o'stirishga qaratilgan metodlarga bo'shatib berishi muhimdir. Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchining axborotni topish, qiyoslash va tanqidiy baholash qobiliyatlarini o'stirish o'qish savodxonligini ta'minlashning asosiy kafolati hisoblanadi.

O'rganilgan ilmiy-nazariy asoslar va tahlillar natijasidan kelib chiqib, boshlang'ich sinflarda o'qish faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. **O'quv dasturlari va darsliklarni takomillashtirish:** boshlang'ich sinf "O'qish savodxonligi" darsliklariga PIRLS formatidagi, ya'ni faqat axborot beruvchi emas, balki mantiqiy fikrlashga, xulosa chiqarishga undovchi turli janrdagi matnlarni ko'proq kiritish.
2. **Metodik yondashuvni o'zgartirish:** dars jarayonida matnni o'zlashtirishni tekshirishda "Matnda nima deyilgan?" kabi yuzaki savollardan voz kechib, "Muallif bu bilan nima demoqchi?", "Siz qahramonning o'rnida bo'lganingizda nima qilardingiz?" kabi yuqori kognitiv jarayonlarni ishga soluvchi muammoli savollar tizimidan keng foydalanish.
3. **Diagnostika va baholashni zamonaviylashtirish:** o'quvchilarning o'qish malakasini faqatgina "bir minutda o'qilgan so'zlar soni" bilan baholash amaliyotini bosqichma-bosqich bekor qilib, uning o'rniga matnni tushunish, qayta hikoyalash va olingan ma'lumotni amaliyotda qo'llay olish darajasiga asoslangan mezonli baholash tizimini joriy etish.
4. **Pedagoglar malakasini oshirish:** boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kognitiv psixologiya va PIRLS tadqiqoti mezonlari bo'yicha maxsus o'quv-seminarlar tashkil etish, ularning matn ustida ishlash bo'yicha metodik kompetensiyalarini muntazam rivojlantirib borish.

Shu boisdan, ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga, ularning xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarni qayd etishiga hamda kelajakda komil shaxs bo'lib yetishishlariga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afforova, T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2011.
2. Mullis, I. V. S.; Martin, M. O.; Foy, P.; Hooper, M. PIRLS 2016 International Results in Reading. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y., 06/19/5712/3034-son.
4. Qosimova, K.; Matchonov, S.; G'ulomova, X.; Yo'ldosheva, Sh.; Sariyev, Sh. Ona tili o'qitish metodikasi: boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalar uchun darslik. – Toshkent: Noshir, 2009.
5. Xoliqov, A. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari // Xalq ta'limi jurnali. – Toshkent, 2021. – № 3. – B. 45–49.
6. Выготский, Л. С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – 352 с.
7. Эльконин, Д. Б. Как учить детей читать. – Москва: Знание, 1976. – 64 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.